

TILNING ZARARLANISHI

B.Isroilova

ADU tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7400411>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tili uning milliy madaniyatining eng muhim tarkibiy qismi ekanligi, etnik o'zlikni anglash tobora kuchayib borayotgan globallashuv jarayonida o'zbek tilini muhofaza qilish, virtual muloqotda ko'p uchrayotgan xatoliklar haqida qisqacha so'z boradi.

Kalit so'zlar: tilnish zararlanishi, virtual muloqot, milliy madaniyat, tilni manipulyatsiya qilish, tilni rivojlantirish va muhofaza qilish, global muloqot.

ТРАВМА ЯЗЫКА

Аннотация. В статье кратко говорится о том, что узбекский язык является важнейшей составляющей его национальной культуры, о защите узбекского языка в процессе глобализации, где повышается осознание этнической идентичности, а также об ошибках, которые часто встречаются в виртуальное общение.

Ключевые слова: языковой ущерб, виртуальная коммуникация, национальная культура, языковая манипуляция, развитие и защита языка, глобальная коммуникация.

INJURY OF THE LANGUAGE

Abstract. The article briefly talks about the fact that the Uzbek language is the most important component of its national culture, about the protection of the Uzbek language in the process of globalization, where awareness of ethnic identity is increasing, as well as about the mistakes that are often found in virtual communication.

Keywords: language damage, virtual communication, national culture, language manipulation, language development and protection, global communication.

Mamlakatimizning istiqloлга erishishi o'zbek xalqining madaniy-ma'naviy hayotida ulkan ijobiy o'zgarishlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, xalqimizning ma'naviyati, madaniyati, axloqiy e'tiqodlari, milliy ruh va yangi mazmun bilan to'lmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov "Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lishi o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish" davlat ahamiyatiga molik ekanligini ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, o'zbek tili sohasida milliy ruh va milliy imkoniyatlarni tiklash uchun harakat kuchaydi. So'nggi yillarda o'zbek tilini ilmiy tadqiq etishning qator yo'nalishlari rivojlandi. Bular ichida ayniqsa "tilga izchil yondashish va funksional tahlil" yo'nalishlari alohida o'rin tutadi. Til va nutq yaxlit bir hodisaning ikki tomoni sifatida belgilanadi. Til hodisalari esa til tuzilishidagi o'rni, roli, nutqda qo'llanishi kabi xususiyatlariga qarab tahlil etila boshlandi.

Til – bu insoniyatning muomalasi, uni o'ylamasdan tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun antropotsentrik paradigmada tilni va uning sathlarini o'rganish, ya'ni inson omilining ma'lum til hodisalariga ta'sirini hisobga olgan holda, u yanada katta imkoniyatlarga eshik ochadi. Masalan, til hodisalari o'z-o'zidan rivojlanib bormaydi, lekin to'g'ridan to'g'ri insonning amaliy faoliyati, aloqa jarayonida uning ba'zi birliklari eskiradi. Til o'z-o'zidan mavjud bo'la olmaydi. Tilning shakllanish nuqtasida ham, maqsadga yo'naltirishning yakuniy qismida ham inson turadi, ya'ni til inson tomonidan ishlatiladi va unga xizmat qiladi. Inson psixikasi, tafakkuri juda

murakkab. Fikrni tilda ifodalash va o'z navbatida tilni amalga oshirish orqali ma'lum g'oyalarni shakllantirish bu tabiatdagi suv aylanishi singari doimiy, abadiy jarayondir.

XX asrning 70-yillari uchun «semantik hujum» xarakterli bo'lsa, 80-yillarda asosiy e'tibor tilning aloqaviyligiga qaratilgan edi. XX asrning oxirgi yillari «kognitiv davri» bo'lsa, asrimizning dastlabki yillaridan boshlab tilshunoslikning mazkur chegaralari kengaytirildi. Birinchi o'rinda hozirgi zamon tilidagi «ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'zgarishlar» davlatlardagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar va boshqa tashqi, tilshunoslikka doir o'sha zaruriy omillar bilan bog'liq o'zgarishlardan chiqib keldi. Mazkur o'zgarishlar ko'pincha tildagi o'zgarishlarni belgilovchi omillar hisoblanadi. O'z navbatida, tildagi yangi o'ramlar jamiyatda yangi madaniyatning tuzilishiga asos bo'ladi.

Globalashuv davrida tilni manipulyatsiya qilish vositalari orqali ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali jahonning rivojlangan mamlakatlari milliy tafakkurini o'z manfaatlariga mos ravishda o'zgartirmoqda. Global muloqot "ikkinchi dunyo" mamlakatlarida til kengayishining dirijyori sifatida ishlaydi. Shu bois bugungi kunda har qachongidan ham ko'proq jahon tendensiyalari namoyon bo'lishining salbiy oqibatlarini minimallashtirish bo'yicha bir qator konseptual sa'y-harakatlarni amalga oshirish zarur.

Xalq tili uning milliy madaniyatining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, u etnosning shakllanishi bilan birga shakllanadi, uning mavjudligining sharti bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, etnik o'zlikni anglashni tobora kuchayib borayotgan globalashuv jarayonlariga qarshi turish muammolarini madaniy o'zini-o'zi ifoda etishning asosiy quroli – tilni hisobga olmasdan turib hal qilib bo'lmaydi.


Bugungi kunda "tilning zararlanishi" biz o'ylagandan ko'ra tez sodir bo'lmoqda. Bundan 2500 yil oldin Konfutsiy to'g'ri nutqning ahamiyatini shunchalik chuqur anglaganki, u uzoq risola yozgan va unda shogirdlarini ogohlantirgan edi: agar ular so'zlarni ishlatishda ham, imloda ham beparvo bo'lishsa, intonatsiya va joylashuvda jiddiy tushunmovchiliklar yuzaga kelishi, bu esa katta tijorat yo'qotishlariga va hatto urushlarga olib kelishi mumkinligini uqtirib o'tgan. Konfutsiy mubolag'a qilmagan, chunki Chor Rossiyasida qirol farmonidagi vergul noto'g'ri qo'llanilgani uchun begunoh odam o'limga hukm qilingani yuqoridagi fikrimizning tasdig'idir.


"Tilning ifloslanishi" - yoki tildan foydalanish bilan bog'liq xatolar – bugungi kunda do'konlar va boshqa kichik biznes muassasalari: birlashmalar - tijorat, sanoat, savdo-sotiq tomonidan yuboriladigan mashinalarda yozilgan so'z va jumllalarda, shuningdek "lingvistik zararlanish"ning katta miqdori ijtimoiy tarmoqlarda ro'y berayotgani og'riqli nuqtamiz bo'lib qolmoqda.

Bugun mamlakatimizning qay bir sohasiga nazar tashlasak, globalashuv an'analari va ularning rivojiga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. Xususan, insoniyatning muloqot tizimida ham yuqoridagi fikrlarimizning tasdig'ini topishimiz mumkin. Bilamizki, muloqotning aktual va virtual muloqot turlari mavjud. Aktual muloqot jonli so'zlashuv muloqoti bo'lsa, virtual muloqot esa og'zaki bo'lmagan aloqa, muloqot shaklidir. Virtual makonda aloqa ko'p hollarda yozma ravishda amalga oshiriladi. Mobil telefonlar, kompyuterlar, raqamli televizor va video jihozlar kundalik hayotimizning, ish faoliyatimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Biz ko'pincha ekran oldida dam olamiz: filmlar tomosha qilamiz, ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlar almashamiz. Ijtimoiy tarmoqlarda do'stlarimiz, yaqin insonlarimiz bilan virtual muloqot qilish, suhbatga kirishish deyarli har kuni sodir bo'ladi. Virtual muloqot paytida o'z fikrimizni

suhbatdoshimizga bayon etishda, albatta, yozma nutqdan keng foydalanamiz. Biroq shoshilamizmi, e'tiborsizlik qilamizmi, bir qator xatolarga yo'l qo'yamiz.

Quyida biz bir qator xatoliklarni ko'rib chiqamiz:





Ushbu nutqlardagi misollarda ko'rib turganimizdek nafaqat imloviy xatolar, balki, o'zbek tiliga boshqa tillarning so'zlarini qorishtirib foydalanish holatlari kuzatiladi. Afsuski, bunday jarayonlar shiddat bilan o'sib bormoqda.

Shunday pallada savol tug'iladi: "Til – nima? Biz nima uchun biz uni himoya qilishimiz kerak?"

Til biz gapiradigan narsadan-da ko'proq narsadir, ayniqsa, O'zbekistonda biz gapiradigan o'zbek tili bizning madaniy merosimiz hisoblanadi. Tilimizni avlodlarga sof holda, o'z jilolari va boyligi bilan meros qoldirish bizning burchimizdir. Til materiallarini ishlab chiqaruvchi tashkilotlar va alohida fuqarolarning doimiy hushyorligi va sa'y-harakatlari bilan biz tilimizga munosib hurmat, g'amxo'rlik va vijdon bilan yondashib foydalanishimiz, o'z tilimizga bo'lgan muhofazani ta'minlashi mumkin.

Xo'sh, yuqoridagi xatoliklarni to'xtatish yoki kamaytirish uchun nima qilishimiz kerak?

- Monitoring tizimini yaratish

Tilning ifloslanishi muammosini hal etish bo'yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun avvalo, masalaning manbasi, ko'lam va mohiyatini tushunib olishimiz kerak.

Kuchli monitoring tizimi bizga ba'zi tegishli savollarga javob berishga yordam beradi, masalan: qanday turdagi til xatolari yuzaga keladi; ular qanchalik tez-tez uchraydi; va ularning manbalari nima?

Muammoni aniqroq ko'rib chiqqanimizdan so'ng, biz tilning ifloslanishini samaraliroq bartaraf etish choralarini ishlab chiqishimiz mumkin.

Monitoring tizimini joriy etish jamiyatning barcha sohalarini jalb qilishni taqozo etadi. Birinchi navbatda, O'zbek tili kengashi va o'zbek tiliga ixtisoslashtirilgan universitet va institut, fakultetlar tilimizni nazorat qilish vazifasini o'z zimmalariga olishlari kerak. Shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali jamoatchilikning til va tarjima xatolarini aniqlash va

tegishli kengashlarga yo'naltirish ham til muhofazasida yaxshi samara berishi mumkin. Bundan tashqari, maktablarda o'quvchilarni monitoring mashqlarida qatnashishga va "til skautlari" sifatida harakat qilishga undash ham ijobiy ta'sir etadi.

Jamoatchilikni jalb qilish nafaqat tildagi xatolarni aniqlash va bartaraf etish imkoniyatini bildiradi, balki fuqarolik mas'uliyatini ham tarbiyalaydi.

Ushbu sa'y-harakatlar monitoring tizimi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va bizga kerak bo'lganda materiallarni tekshirish uchun qo'shimcha resurslarni yo'naltirish uchun birinchi navbatda til va tarjima xatolari qayerda yuzaga kelishi mumkinligini tushunishga yordam beradi. Taniqli olim Q.Xonazarov "Globalashuv – mavjud tillarga zarar yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydigan obyektiv jarayondir. Biroq, u o'zining tezlashishi va kengayishi bilan tillar poydevoriga putur yetkazadi, minglab tillar saqlanib qolgan tuproqni va birinchi navbatda, kichik xalqlar, millatlar, qabila va elatlarning tillarini yuvib yuboradi". Shunday ekan millatimiz faxri bo'lgan ona tilimizni ongli ravishda avaylab-asrashimiz, uni avlodlarga o'z jilolari bilan qoldirishimiz lozim. Zero bu biz uchun ham farz ham qarzdir.

REFERENCES

1. Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari.- T, O'zbekiston, 1998, 19-bet.
2. G'ulomov A., Ne'matov H. Onatili ta'limi mazmuni. Onatili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.- T.: "O'qituvchi", 1995, 6-bet.
3. Саидов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот. –Т.: Академия, 2008. 66-бет
4. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T.: 2006